

“Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti tashqi ishlar vazirlarining majlisi to‘g‘risida



O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov ertaga, 11-avgust kuni videokonferensiya shaklida o‘tkaziladigan “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqoti tashqi siyosat idoralari rahbarlarining navbatdan tashqari majlisida ishtirok etadi.

Tashqi ishlar vazirligi xabariga ko‘ra, tadbirda, shuningdek, Yaponiya tashqi ishlar vaziri Toshimitsu Motegi, Qirg‘iziston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Chingiz Aydarbekov, Qozog‘iston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Muxtar Tleuberdi, Tojikiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sirojiddin Muhriddin va Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisi o‘rinbosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov qatnashadi.

Majlisda chog‘ida Muloqotga a‘zo davlatlardagi joriy epidemiologik holat, koronavirus infeksiyasi oqibatlariga qarshi birgalikda kurashish masalalari hamda pandemiya sharoitida hamkorlikni yana-da rivojlantirish istiqboli muhokama qilinishi rejalashtirilgan.

Manba